

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS

TA’LIMVAZIRLIGI

TOSHKENT KIMYO - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

YOQILG‘I VA ORGANIK BIRIKMALAR KIMYOVIY

TEXNOLOGIYASI FAKULTETI

«YUQORI MOLEKULALI BIRIKMALAR VA PLASTMASSALAR

TEXNOLOGIYASI» KAFEDRASI



**“5522400” – KIMEVIY TEXNOLOGIYASI “YUQORI
MOLEKULALI BIRIKMALAR, PLASTMASSA VA
ELASTOMERLAR ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI”**

yo‘nalishi bo‘yicha

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Malakaviy bitiruv ishi mavzusi: ***“SKLEARTECH texnologiyasi
bo‘yicha polietilen ishlab chiqarishda LB kolonnasini loyihalash
(yiliga 100000t) ”***

Bajardi:

Muxammadiyev J.A

Qabul qildi:

dots. Teshabayeva E.U

Mundarija

1.Kirish -----	5
2.Loyiha mazmuni va ishlab chiqarish usulini asoslash -----	9
3. Loyihalanayotgan texnologik jarayonni nazariy kimyoviy, fizikaviy kimyoviy, texnologik asoslari -----	12
4 Xom ashyoni va materiallarni ta'minlovchi korxonalar, xossalari, tekshirish usullari, ularni texnologik jarayonga tayyorlash -----	13
5. Tayyor mahsulotni xossalari,tekshirish usullari va ularni asosiy Ishlatuvchilar -----	24
6. Ishlab chiqarish chiqindilari va ulardan foydalanish yo'llari -----	33
7. Ishlab chiqarishning texnologik sxemasi va parametrlar yozuvi jarayoni -----	36
8. Ishlab chiqarishda sarf buladigan xom ashyo va materiallarni sarf balansi(texnologik jarayon buyicha)-----	44
9. Ishlab chiqarish texnologik sxemasiga kura asosiy va yordamchi jixozlarni tanlash ularni ishlab chiqarish unumdorligini hisoblab, kerakli miqdorini Aniqlash -----	51
10. Texnologik jarayonda asosiy jixozni tanlash jixozning issiqlik balansi biron bir qismini mustaxkamligini xisoblab toppish -----	55
11. "Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish" qismi -----	66
12. Iqtisodiy qism -----	69

13. Ishlab chiqarishda texnik xavfsizligi, atrof muhit muxofazasi, fuqaro muxofazasi -----	74
14. Foydalanilgan adabiyotlar -----	99

Kirish

Prezidentimiz raxnamoligida amalga oshirilayotgan keng kulamli isloxotlar mamlakatimizni barkaror sur'atlar bilan tarakkiy topishida asosiy omil bulmokda. Mamlakatimizda ishlab chikarish korxonalarini modernizatsiya kilish, texnik va texnologik jixatdan yangilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar tufayli xozirgi kunda nafakat ichki bozorimiz turli-tuman maxsulotlar bilan boyimokda, balki eksport amaliyoti xam tobora ortib bormokda.

Bu jarayonda ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab quvvatlanayotgani soxa rivojiga xizmat qilmoqda. Tarmoq va tarmoqlararo hamkorlik mustahkamlanmoqda. Texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlanayotgan korxonalarda xaridorgir zamon talablariga mos va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish xajmi ortib, ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. O'zkiyosanoat kompaniyasidan ma'lum qilishlaricha joriy yilning birinchi dekabrida soxa korxonalari tomonidan maxalliy lashtirish dasturiga 147,4 milliard so'mlik maxsulot ishlab chiqarish mamlakatimiz qishloq xo'jaligi, sanoat, tog'-kon, metallurgiya, neft-gaz singari soxalar korxonalariga yetkazib berilgan. Xozirgi kunda yurtimizda va dunyo bo'ylab rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan soxalar rivojlanib bormoqda. Jumladan yengil va to'qimachilik sanoati, mashinasozlik, radio va elektrotexnika, qurilish sanoatlari hamda qishloq xo'jaligining rivojlanishi turli tuman qimmatli xossalarga ega bo'lgan kimyoviy tolalar, kauchuklar, lok va bo'yoqlar ishlab chiqarish bilan bog'liqdir. Ushbu talablarni inobatga olib va bexisob qimmatbaxo xom-ashyolar, ko'mir, neft va gazlarni mo'lligini ko'zda tutib, O'zbekiston nafaqat tabiiy polimerlar diyori, shu bilan birga asosiy va ko'p tarmoqli sun'iy polimerlar va elastomerlar markaziga aylanib bormoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining taraqqiy tapishi, rivojlangan davlatlar qatorida o'z munosib o'rnini egallashi, hamda eng asosiysi xalq forovonligini har tomonlama o'stirish uchun xalq xo'jaligining barcha sohalarida yangi va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, ishlab chiqarish jarayonlarini sifatli

va yuqori unumdorlik darajasida tashkil qilish zarur. Sanoatning eng muhim va eng murakkab tarmoqlaridan biri hisoblangan kimyo sanoatining rivojlanishi xalq xo'jaligining barcha sohalarini taraqqiy topishiga, shuningdek Vatanimiz iqtisodiyoti va xalq farovonligini o'sishiga ijobiy ta'sir etadi. Shuni hisobga olgan holda yurtimizda bu sohani har tomonlama rivojlantirish uchun yurtboshimiz boshchiligida katta e'tibor qaratilmoqda va keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ko'plab ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda va yangilari bunyod etilmoqda. Bu korxonalarning barchasida zamonaviy texnika va jihozlar mujassamlashgan bo'lib, ular zamon talablariga to'liq javob beradi.

Bugungi kunda mubolag'asiz kimyo sanoatini mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati ortib bormoqda. Zamonaviy kimyo sanoatining xarakterli alomatlaridan biri organik sintezning tez sur'atlar bilan o'sishidir. Kimyo sanoatining rivojlanishini muxim vazifalaridan biri sanoatning barcha tarmoqlarida va turmushda zamonaviy kimyo yutuqlaridan to'la foydalanishdir, yangi, mukammalroq va arzon ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishdir.

Respublikamizda neft-gaz sanoatida keng kulamda ishlar olib borilmokda, shu jumladan, yangi kurilishi loyixalanayotgan tabiiy gazdan sintetik suyuq yonilgi ishlab chikarish zavodini misol tarikasida olamiz.

Sintetik suyuq yonilgi ishlab chikarish korxonasi uchta yirik kompaniyalar xomiyligida kurilishi rejalashtirilmokda, bular Janubiy Afrikani «SASOL», Malayziyaning «PETRONAS» va «UZNEFTGAZ» milliy xolding kompaniyalardir.

Poliolefin birikmalarining eng oddiy vakillaridan biri-polietilen, u etilendan polimerlar yo'li bilan olinadi. Ma'lumki, dunyoda individual uglevodorodlar ichida ishlatilishi hajmi bo'yicha etilen birinchi o'rinda turadi. Buning sababi etilen

asosida polimerlar va oddiy birikmalar sintez qilinadi. Bular qatoriga etanol, asetelin, stirol, vinilxlorid, polietilen, polivinilxlorid, polistirol va boshqalar kiradi.

Polietilen past haroratda (110 - 130°S) yumshaydigan termoplastik polimer bo'lib, xona sharoitida bironta ham erituvchida erimaydi. Aromatik va xlorlangan uglevodorodlarda 70°S dan yuqorida bo'kadi va eriydi. Polietilen konsentrlangan kislota va ishqorlar, tuzlarning suvdagi eritmaları ta'siriga ham chidamli. Atmosfera ta'siriga hamda issiqlikda oksidlanishga chidamliligini oshirish maqsadida polimer tarkibiga turli xil stabilizatot – antioksidantlar qo'shiladi. Polietilen radiotexnikada va televizor qismlarini olishda elektroizolyasiya materiali sifatida, korroziyaga chidamli qoplamlar, turli maqsadlarda ishlatiluvchi plenklar, idishlar olishda, qog'oz, yog'och, matolarni shimdirishda va h.k. ishlatiladi. Mexanik va fizik – kimyoviy xususiyatlarini yaxshiligi, qayta ishlashning osonligi hamda arzonligi dunyo bo'yicha ishlab chiqarilayotgan sintetik polimerlar orasida polietilenni birinchi o'ringa chiqib olishiga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda polietilen yuqori bosimda, past bosimda, o'rta bosimda, hamda "SKLEARTECh" texnologiyalari bo'yicha ishlab chiqariladi. Jarayon Sclairtech Kanada texnologiyasi bo'yicha amalga oshiriladi.



ShGKM qurilishiga AQSh, Germaniya, Yaponiya, Italiya va boshqa mamlakatlarning nufuzli kompaniyalari jalb etilib 650 million AQSh dollari miqdorida sarmoya sarflanadi.

Bu korxona ishga tushgach nafaqat polietilen granulasi va plyonka, ayni vaqtda eksportbop va raqobatbardosh uy - ro'zg'or buyumlar, gaz va suv quvurlari, texnik uskunalari kabi xalq xo'jalik ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlarni ham o'zimizda tayyorlash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Kompleks ishga tushganda 2000 ga yaqin ish o'rinlari ochildi.

Loyihalash mazmuni va tanlab olingan ishlab chiqarish usulini asoslash

Loyihada o'ta muhim muammolarni va mas'uliyatli muhandislik masalalarini hal qilishda ushbu konkret sharoitda eng samarali ishlab chiqarish usulini, apparat va mashinalarning o'ichamlari va miqdori, shuningdek, jihozlarning ma'qul rejimda ishlashini aniqlash, tanlash juda muhimdir. Loyihalashning murakkabligi shundaki, ko'p muhandislik muammolari bir-biri bilan chambarchas bog'langan va ularni yechish geografik (qurilish maydoniga, xomashyo va mahsulotni tashish masofasiga, iqlimiga), ijtimoiy (mehnat muhofazasi va atrof muhitga, mehnatkashlarning uy-joy, maishiy turmush sharoitlariga) va iqtisodiy omil (kapital sarfiyotlar, mahsulot tannarxi, chiqimini qoplay olishi va boshqalar)ga bog'liq.

Loyihalashning eng muhim iqtisodiy masalalariga quyidagilar kiradi:

1. odamlar, industriya va tabiatning bir-biriga o'zaro munosabati-ning maqbulini topish;
2. ishlab chiqarishning eng maqbul loyihasini ta'minlovchi ichki korxona omillarini hisobga olish;
3. maqbul hajmiy rejalantuvchi va samarali qurilish materiallarini tanlash;
4. mehnat unumdorligini orttirishda, sanitariya texnika sharoitlarni hisobga olish.

Ayrim sexlar, ularning qismlari, butun korxonalar turli xil ishlab chiqarishni birga qo'shilgani yoki loyihalantlayotgan korxonalarning atrof-muhiti loyihalash obektlari bo'lib hisoblanadi. Loyihalash bu qurilishning tayyorgarlik bosqichidir. Texnik iqtisodiy asoslash sifati va loyihalashning yuqori darajasi qurilishning smeta qiymati, qurilishning davomiyliqi, kapital xarajatlarning samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

Yangi ishlab chiqarishni barpo etish qimmat va uzoq davom etadigan jarayondir. Yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishning sanoat usuli yoki yarim mahsulotni olishning yangi, ancha takomillashgan usulini ishlab chiqarish uchun tadqiqotchilar, konstruktorlar, texnologlar, iqtisodchilar, quruvchilardan iborat yirik jamoaning 3—10 yil vaqti sarflanadi.

Yangi kimyoviy ishlab chiqarishni barpo etishda muhandis-texnologlar yetakchi o'rinni egallaydi. Ular korxonaning barcha bosqichlarida, ya'ni u yoki bu mahsulotga talabni aniqlashdan tortib, to ishlab chiqarishni sinash va o'zlashtirishgacha bo'lgan ishlarda faol qatnashadilar. Muhandis-texnologning ishi o'ta mas'uliyatli bo'lib, bunga laboratoriya tadqiqotlari yo'nalishini va ishlab chiqarish usulini tanlash, adabiyot ma'lumotlari va laboratoriya tadqiqotlari, pilot yoki tajriba — sanoat qurilmalari natijalariga ko'ra, mahsulot olinadigan turli usullarni solishtirish va baholash kiradi. Har qanday ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda barcha texnik-iqtisodiy va texnologik hisoblar asosida (xomashyo bo'yicha sarflash koeffitsientlari va energiya va jihozlarning o'lchamlari harada miqdori va boshqalar) bajariladi.

Sanoat obektini loyihalash bosqichida muhandis kimyogar texnolog loyihalash institutining ko'p bo'limlari ishlarini boshqaradi, u dastlabki ma'lumotlarni beradi va turli sohalardagi mutaxassislar-mexanik, energetik, issiqlik texnigi, quruvchi, iqtisodchi va boshqalarga topshiriq tayyorlaydi.

Polietilen ishlab chiqarish quyidagi usullardan iborat; past bosimda, o'rta bosimda, yuqori bosimda va CKLERTECH texnologiyasi bo'yicha. Bizda SHurtan Gaz Kimyo majmuasida CKLERTEK teznologiyasi bo'yicha polietilen ishlab chiqariladi. Bu texnologiyaning boshqa texnologiyalardan avzalliklari ko'p, masalan bu texnologiya bilan olingan polietilenning fizik- kimyoviy, mexanik xossalariyam yaxshi buladi, bu texnologiya bilan olingan polietilenning konversiyasi 95-96% ni tashkil qiladi. Bu texnologiya uzluksiz ishlaydi.

**Loyihalanayotgan texnologik
jarayonni nazariy kimyoviy,
fizikaviy kimyoviy, texnologik
asoslari**

Ion polimerlanish. Bu turdagi polimerlanishda aktiv markaz vazifasini o' sayotgan zanjir uchidagi ionlar bajaradi va u qarama - qarshi ion bilan ion juftini hosil qiladi. Kation va anion polimerlanishni farqlashadi. Ion polimerlanishga $C = C$, $C = O$, $C \equiv N$ bog'lar saqllovchi birikmalar va geterohalqali birikmalar uchraydi.

Kation polimerlanish. Kation polimerlanishda o' sayotgan zanjir musbat zaryadlangan bo' ladi. Kation polimerlanish katalizator ishtirokida boradi. va katalizator sifatida Lyuis kislotalari, ya' ni elektronoaktseptor birikmalar ishlatiladi. Keng tarqalgan katalizatorlar quyidagilardir:

1) Proton kislotalar: $HClO_4$, H_2SO_4 , H_3PO_4 , HCl va boshqalar;


2) a-proton kislotalar: Lyuis kislotalari, Fridel'-Krafts katalizatorlari, metallarning koordinatsion to' yinmagan tuzlari guruhiga mansub birikmalar – MeX_n (x - galogen). Masalan, VF_3 , $AlCl_3$, $SnCl_4$, $TiCl_4$, $FeCl_3$ va boshqalar.

a-proton kislotalarni sokatalizatorlar - proton donorlari ishtirokida katalitik samaradorligiga oshadi.


Kation mexanizm bo' yicha elektronodonor o' rinbosarlar saqllovchi etilen xosilalari, masalan karbonil guruhi saqllovchi vinil monomerlari, akrilonitril, izobutilen, trioksan, tetragidrofuran va shu kabilar.

Kation polimerlanishga misol tariqasida to' yinmagan monomerlarni Lyuis kislotalari ishtirokida polimerlanishini ko' rib chiqaylik:


Aktiv markazning xosil bo' lishi katalizator va sokatalizator kompleksining hosil bo' lishi:




Kompleks monomer molekulasini bilan ta' sirlashadi:




Zanjir o'sishi. Monomerni makrokationga birikish hisobiga sodir bo'ladi yoki boshqacha qilib aytganda monomer zanjir oxirida joylashgan ion orasiga birikadi.



Zanjir uzilishi. Aksariyat hollarda monomolekular bo'ladi. Bunda vodorod kationini ichki molekular uzatilishi hisobiga aktiv markazni dezaktivatsiyasi kuzatiladi.



Zanjir uzatilishi. Kation polimerlanishda monomerga zanjir uzatilishi muhim ro'l o'ynaydi. Sabab u polimerni mumkin bo'lgan molekular massasi qiymatini belgilaydi. Bu reaksiya molekulalararo vodorod kationini uzatilishi hisobiga boradi.




Kation polimerlanishning tezligi monomer va katalizator konsentratsiyalariga proporsionaldir.

Anion polimerlanish. Bu turdagi polimerlanishda o'sayotgan zanjir o'z oxirida manfiy zaryad tutadi. Anion polimerlanishning katalizatorlari sifatida Lyuis asoslari, ya'ni elektronodonor birikmalar, masalan ishqoriy metallar, davriy sistemaning I va II guruhlar metallarining hosilalari (alkillar, arillar, algolyatlar, amidlar va boshqalar) ishlatiladi. Anion polimerlanishga eletronoakseptor o'rinbosarlar saqlovchi to'yinmagan monomerlar, masalan, akrilatlar $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{COOR}$ yoki ta'sirini qo'sh bog' orqali uzatish energiyasi yuqori bo'lgan monomerlar (stirol, dienlar) moyilroq bo'ladilar. Bu birikmalarda

elektronoaktseptor o'rinbosarlar qo'sh bog' elektron bulutini siyraklashishiga sababchi bo'ladilar.


Anion polimerlarda quyidagicha boradi:

2. I gurux metallari va I, II gurux metallorganik birikmal




Aktiv markazni hosil bo'lishi


Zanjir o'sishi. Monomerni makroionga ketma-ket birikishi hisobiga sodir bo'ladi.



Zanjir uzilishi. Gidrid-ionni qarama-qarshi ionga yoki monomer molekulyasiga o'tishi bilan sodir bo'ladi.




Yukorida keltirilgan misol uchun zanjir uzilishi gidrid-ionni erituvchi molekulasidan o'sayotgan makroionga o'tishi xisobiga sodir bo'ladi.



Anion polimerlanishning prinsipial xususiyati shundaki, bu usulda "tirik polimerlar" olish mumkin. Ya'ni polimerlanishni zanjir uzilishsiz va uzatilishsiz olib borish mumkin. Agar bu sistemaga yana monomer qo'shilsa polimerlanish tiklanadi.

Anion polimerlanish usuli bilan sanoat miqyosida kauchuklar, poliamidlar, poliformaldegid, polietilenoksid olinadi.

Polietilen olish usullarini tanlashda usulni texnik-iqtisodiyot ko'rsatkichlariga katta ahamiyat berish kerak. Bu boradagi yakunlovchi ko'rsatkich, bu usulga qancha kapital sarf qilinganligi va polietilenning tannarxi bilan aniqlanadi.



Chiziqsimon amorf(1) va kristall (2) polimerning termomexanik egri chizig'i

Past xaroratda T_{sh} nuktagacha deformatsiya oz va kaytar bulib, jism kattik xolatda buladi. Shartli ravishda T_{sh} (shishalanish xarorati) bilan belgilangan bu oralikda polimer shishasimon xolatda buladi.

Xarorat kutarilishi bilan deformatsiyanish xam asta-sekin kutarila boradi, kattik va murt jism yumshok va elastik bula boradi. Bu oralik yukori elastik xolat bulib, kaytar deformatsiyaga egadir va shartli ravishda T_0 (okuvchanlik xarorati) bilan belgilanadi. Shunday kilib, T_{sh} va T_0 orasida polimer yukori elastik xolatda bular ekan.

Xarorat yana kutarilganda kaytmas deformatsiya kovushok-okuvchanlik vujudga kelganligidan deformatsiya mikdori juda tez oshib ketadi, xarorat T_0 dan yukori bulganda polimer kovushok-okuvchan xolatga utadi. Shunday kilib, chiziksimon amorf polimer kizdirilgan shishasimon xolatdan yukori elastik xolat

orkali kovushok-okuvchan xolatga utadi. Bir xolatdan ikkinchi xolatga utishda ma'lum xarorat oraligi mavjud buladi. Bu oraliklarning xarorat shkalasidagi urni polimerning tuzilishi va kimyoviy tarkibigagina boglik bulmay, balki berilayotgan mexanik kuch tezligiga xam boglikdir.

**Xom ashyoni va
materiallarni ta'minlovchi
korxonalar, xossalari,
tekshirish usullari, ularni
texnologik jarayonga
tayyorlash**

Vodorod-odatdagi sharoitda rangsiz, hidsiz gaz bo'lib, ta'mi yo'q. Tabiatda keng tarqalgan bo'lib, Yer po'sti (litosfera va gidrosfera) dagi miqdori og'irligi bo'yicha 1%, atomlar soni bo'yicha 16% ni tashkil etadi.

Vodorod ma'lum moddalar ichida yengili bo'lib (havodan 14,5 baravar yengil), zichligi 0,0899g/l (0° va 1 atm). Vodorod $252,6^{\circ}$ da qaynaydi (suyuqlanadi) va $259,1^{\circ}$ da suyuqlanadi (qotadi). Barcha gazlar ichida eng ko'p issiq o'tkazuvchandir (0° va 1 atm da $4,16 \times 10^{-4}$ kal/smsekxgrad). Vodorod suvda kam eriydi (20° va 1 atm da 0,0182ml/g), lekin metallar (Ni, Pt, Pd kabi) da, ayniqsa palladiyda yaxshi eriydi.

Vodorod sanoatda tabiiy va yo'lakay gazlardan, koks gazi va neftni qayta ishlashda hosil bo'luvchi gazlardan olinadi. Elektroliz yo'li bilan suvdan olinadi. Metandan suv bug'i yoki kislorod ta'sir ettirib olinishi asosiy usullardan biri hisoblanadi.

Vodorod ammiak, metil spirti, sintetik benzin (sintin) ishlab chiqarishda, qattiq va og'ir suyuq yoqilg'ilar, yog'larni gidrogenlashda, xlorid kislota sintezida, neft mahsulotlarini tozalashda, metallarni kavsharlash va qirqishda ishlatiladi H_2 - rangsiz, ta'msiz, hidsiz gaz. Suvda eriydi. Kislorod, uglerod, xrom ishtirokida portlovchi aralashma hosil bo'ladi.

-havodagi zichligi -0,072;

-ishchi binosidagi zichlik -300 mg/m³;

-REK pastki – 4%;

yuqori- 74%;

-o'z-o'zidan alangalanish – 510° S;

Nafas olinganda bugʻadigan, zaharlovchi modda. Fiziologik inert gaz, kuchsiz (oʻrtacha) konsentratsiyasi bosh ogʻrigʻi, uyqusizlik, bosh aylanishi, noxoʻshlik, soʻlak ajralishi, qusish va hushsizlanishga olib keladi.

Etilen- C_2H_4 -gaz, suvda erimaydi, rangsiz suyuqlik yoki gaz, yoqimli hidga ega. Etilen tez alangalanadi, qizdirilganda yoki alanga tekkizilganda polimerlanish reaksiyasiga kirishadi. Juda alangalanuvchan modda. Atmosferaga tashlanganda bugʻsimon bulut koʻrinishida eriydi.

Zaharlanish belgilari: bosh aylanishi, umumiy toliqish va xotirani yoʻqotish. Etilen bilan kontakt boʻlganda muzlash kuzatiladi. Etilen mahsulotlari yonganda CO hosil boʻladi. Hid 0,02–0,26 mg/l konsentratsiyada seziladi, noxoʻshlikning sezilarsiz bosqichlari 80% etilennig kislorod bilan aralashmasida boshlanadi. Kuchli hushsizlik, shilliq qavatlarda kuchsiz zararlanish, yurak faoliyatida ezilish kuzatiladi. 34–34% etilen konsentratsiyasida analgeziya kuzatiladi, xotira saqlanadi.

molekular massasi 28,05 Buten-1 olishda 2-molekula etilenni dimerizatsiya reaksiyasi natijasida hosil boʻladi. Etilen xom ashyosi SHGKM ning oʻzida ETILEN sexida ishlab chiqariladi. Etilenni jarayonga 17-25⁰C temperaturada va bosimini 4100-4350kPa da siklogeksan va buten-1 aralashmasi bilan EA-2102 absorber sovutgichni kirish qismiga uzatiladi.

-(-103,7⁰S) haroratdagi zichlik -0,57;

-bugʻ zichligi – 0,978;

-ishchi binosidagi REK – 50 mg/m³;

-REMK pastki – 2,7%

yuqori – 32%;

-oʻz-oʻzidan alangalanish harorati – 450⁰S;

-qaynash nuqtasi – 102°S ;

-suyuqlanish nuqtasi – 169°S ;

-hid bilish pastligi -260 ppm ;

$\text{CH}_2 = \text{CH}_2$ yonuvchan rangsiz gaz.

molekular massasi 28,05

zichligi, (0°C 760 mm simob ustunida) kg/m^3 1,259.

- 100°C dagi etilenning zichligi, kg/m^3 563.

- suyuqlanish harorati $^{\circ}\text{C}$, 169,15.

- qaynash harorati $^{\circ}\text{C}$, 103,70.

- havodagi zichligi, 0,974.

Siklogeksan - C_6H_{12} -rangsiz, yengil hidga ega bo'lgan suyuqlik, efirni eslatadi.

Suvda erimaydi, lekin bir nechta organik erituvchilarda eriydi. Nafas olganda nafas yo'llarini zararlaydi, yuqori konsentratsiyasi narkotik ta'sirga ega. Teriga tekkanda terini kuydiradi. Simptomlari qizarish, og'riq, qichima kabi oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ko'z shilliq qavatiga kontaktlashganda kuyish, qizarish, og'riq chaqiradi. Xronik ta'siri terini kuydiradi.

. Siklogeksan alangalanuvchan suyuqlik, uning bug'lari havo aralashmasi bilan 1,3-8,4% oralig'ida portlovchanlik xususiyatini namoyon qiladi. Siklogeksan Rossiyadan Federatsiyasidan yetkazib beriladi. . Jarayonga siklogeksan resikl zonasidagi EA-2208 issiqlik almashtirgichdan $140-165^{\circ}\text{C}$ temperatura va 600-900kPa bosimda reaksiya zonasidagi xavo bilan sovutuvchi EC-2101 apparatiga keladi.

Sotuv markasi-Sh;

Kimyoviy formulasi- S_6N_{12} ;

Qo'llanilishi-erituvchi;

Qaynash nuqtasi- 81^0S ;

Suyuqlanish nuqtasi- $6,47^0S$;

Zichligi- 20S da $0,78 \text{ kg/m}^3$;

O'z-o'zidan alangalanish harorati- 245^0S ;

-REK – 80 mg/m^3 .

Buten – 1, $CH_3CH_2CH = CH_2$ -o'tkir hidli suyuqlik, suv bilan haydaladi, markaziy nerv sistemasiga ta'sir ko'rsatadi, ko'z shilliq qavatini va nafas yo'llarini kuchli zararlaydi, birdan noxo'shlik, ingichka-klinik tirishish kuzatiladi.

Buten-1 SHGKM ning o'zida Buten-1 olish sexida ishlab chiqariladi.. U azot bilan xosil qilingan bosim yordamida aralashtiruvchi bakga xaydaladi.U yerda u quritilgan siklogeksan bilan suyultiriladi va taxminan 25% li eritma (4% metallar miqdori) xosil qilish uchun aralashtiriladi.

- molekular massasi, 56,11.

- zichligi, kg/m^3 2,5001

- past zichlikdagi turg'unligi, kg/m^3 594,5.

- havodagi zichligi, kg/m^3 1,9336.

- suyuqlanish harorati, $^{\circ}C$ 185,34.

- qaynash harorati, 6,25.

-bug' zichligi – 1,94;

-REMK pastki – 1,7%;

yuqori – 9% ;

-alangalanish harorati – (-80°S);

-zararlovchi harakat boshlanishi – 0,0005 mg/litr;

-hid sezishning boshlanishi – 0,0005 mg/litr.

Tayyor mahsulotni xossalari, tekshirish usullari va ularni asosiy ishlatuvchilar

Polietilenning fizikaviy-kimyoviy xossalari

Polietilen zichligi $910-970 \text{ kg/m}^3$, yumshash harorati $110-130^\circ\text{S}$ bo'lgan termoplastik polimerdir.

Sanoatda turli usullarda ishlab chiqarilayotgan polietilen bir-biridan zichligi, molekula massasi va kristallik darajasi biln farqlanadi.

	Quyi zichlikli polietilen	Yuqori zichlikli polietilen
Zichlik, kg/m^3	910-930	950-970
Molekula massasi	80000-500000	80000-800000
Kristallik darajasi, %	50-65	75-90

Xossalari va ishlatilish joyiga qarab polietilen bir-biridan zichligi, suyuqlanmasini oquvchanlik ko'rsatkichi, barqarorlovchi qo'shilgan va qo'shilmaganligi bilan farqlanuvchi turli markalar ostida chiqariladi.

Quyida polietilenlarni asosiy fizikaviy-mexanik xususiyatlari keltiriladi:

	Quyi zichlikli polietilen	Yuqori zichlikli polietilen
Buzilish kuchlanshi, MPa		
Cho'zilishda	9.8-16.7	21.6-32.4
Yegilishda	11.8-16.7	19.6-39.2
Uzilishdagi nisbiy uzayish, %	500-600	300-800
Cho'zilishdagi qayishoqlik moduli, MPa	147-245	540-981
Yegilishdagi qayishoqlik moduli, MPa	118-255	636-735
Brinell bo'yicha qattqlik, MPa	13.7-24.5	44.2-63.8
180° ga egilish soni	3000	1500-2000

Doimiy (statistik) og'irlikni uzoq ta'siri natijasida polietilen deformatsiyalanadi. Quyi zichlikli polietilenni uzoq vaqtli baquvvatlik chegarasi 2.45 MPa, yuqori zichlikli polietilenniki esa 4.9 MPa ga teng.

Uzoq vaqt kuchlanish holatida ishlatiladigan polietilen mahsulotlarini yorilish ehtimoli bor.

Molekula massasini ortishi, kristallik darajasini va polidisperslikni kamayishi bilan polietilenni yorilishga chidamliligi ortadi.

Polietilenni issiqlik xossalari quyida keltirilgan.

	Quyi zichlikli polietilen	Yuqori zichlikli polietilen
Suyuqlanish harorati, °S	105-108	120-130
Haroratbardoshlik, °S	108-115	120-135
Issiqlik o'tkazuvchanlik, $Vt/(m \cdot K)$	0.29	0.42
Issiqlik ta'sirida chiziqli kengayish koeffitsienti 0-100°S o'rtasida, 1/grad	$(2.2-5.5) \cdot 10^{-4}$	$(1-6) \cdot 10^{-4}$
Issiqlik ta'sirida hajmiy kengayish koeffitsienti 50-100°S o'rtasida, 1/grad	$(6.0-16.0) \cdot 10^{-4}$	$(5-16.5) \cdot 10^{-4}$
Mo'rtlik harorati (sovuqbardoshlik), °S	-80 dan -120 gacha	-70 dan -150 gacha

Polietilen zichigini ortishi bilan uning suyuqlanish harorati ortadi.

Quyi zichlikli polietilendan olingan mahsulotlar 60°S gacha, yuqori zichlikli polietilendan olinganlari esa 100°S gacha ishlatilishi mumkin. Polietilen -70°S da mo'rt bo'ladi va shuning uchun undan olingan mahsulotlar qattiq sovuq sharoitlarida ham bimalol ishlatilishi mumkin.

Polietilen yuqori suvga chidamlilik xossalarini namoyon etadi. Quyi zichlikli polietilen 20°S da 30 kun davomida 0.04%, yuqori zichlikli polietilen esa 0.01-0.04% suv shimadi.

Polietilen yaxshi dielektrik hisoblanadi.

Quyida uning elektr xususiyatlari keltirilgan.

	Quyi zichlikli polietilen	Yuqori zichlikli polietilen
1 MGs da dielektrik singdiruvchanlik	2.2-2.3	2.1-2.4
Dielektrik yo‘qotishning tangens burchagi (1 MGs va 20°S da)	$(2-3) \cdot 10^{-4}$	$(2-5) \cdot 10^{-4}$
Solishtirma elektr qarshiligi		
sirt, Om	$<10^{14}$	$<10^{14}$
hajmiy, Om*m	10^{15}	10^{15}
1 mm qalinlikdagi buyumni o‘zgaruvchan tokka nisbatan elektr mustahkamligi, kV/mm	45-60	45-60

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki polietilenni zichligi uning elektr xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.


Polietilen oddiy sharoitda (xona haroratida) organik erituvchilarda erimaydi. Faqat 70°S dan yuqorida xlorli va aromatik erituvchilarda bo‘kadi hamda eriydi. U konsentrlangan kislota, ishqor va tuz eritmaları ta’siriga chidamli.

Konsentrlangan sulfat va xlorid kislotalari polietilenga umuman ta’sir etmaydi, azot kislotasi va unga o‘xshash kuchli oksidlovchilar polietilenni parchalab tashlaydi.

Atmosfera, quyosh nurlari ta’siriga va issiqlik ta’sirida oksidlanishga chidamliligini oshirish maqsadida, polietilenga turli xil barqarorlovchilar qo‘shiladi.

Yakuniy ishlov berish qurilmasining mahsuloti, bu 3x3 mm kattalikdagi polietilen granularidir.

Polietilen granularining kimyoviy formulasi quyidagicha:



Somonomer sifatida buten-1 qo'shib olinayotgan chiziqli polietilen 0,918 – 0,960 g/sm³ zichlikka ega. Suyuqlanamning oquvchanlik indeksi quyidagi oraliqda 0,2 – 120g/10 min bo'ladi.

Molekula – massaviy taqsimlanishi esa juda tordan, juda keng taqsimlanishigacha o'zgarishi mumkin. Kuchlanish eksponentasi esa 1,2 dan injektorli(bosim ostida quyish) shakllantirishda ishlatiladigan, yuqori darajali oquvchanlikka ega polimerlar uchun], to 2,0 (ekstruziya usulida shakllantiriladigan polimerlar uchun) gacha o'zgaradi.

SKLEARTECHtexnologiyasi bo'yicha ishlab chiqarilgan polietilenning molekula massasining (M_w o'rtacha og'irlik bo'yicha topilgan) maksimal qiymati 250.000 iashkil etadi. M_n (o'rtacha raqamiy molekula massasi)ning maksimal qiymati 35.000 ni tashkil etadi. Odatda M_w/ M_n nisbati qiymati 2,8 dan 17 gacha bo'ladi.

Polietilenning asosiy ko'rsatkichlari quyidagicha:

Zichligi $d = 0,920\text{--}0,965 \text{ kg/cm}^3$

Suyuqlanish indeksi $MI = 0,2 - 120\text{g}/10\text{min}$

Kuchlanish eksponentasi $Sex = 1,2 - 2,0$

Rangi - tiniq

Mahsulot tarkibidagi uchuvchan moddalar miqdori – (0,05%)500 rrm.

Polietilen – qalin qavatda oq, ingichka qavatda rangsiz va tiniq qattiq modda. Yonuvchi modda. Amorf fazasini juda past (-80°S ga yaqin) shishalanish harorati, polietilenga yuqori sovuqbardoshlikni ta'minlab beradi.

Polietilenni yaxshi dielektrik xossalari juda kerakli bo'lib, uni yuqori chastotali dielektrik sifatida ishlatish imkonini beradi. Harorat 190°S da polietilen suyuq xolga o'tadi.

Polietilenni suv va suv bug'iga o'ta chidamli. Xona haroratida konsentrlangan mineral kislotalar (sulfat, xlorid, ftorid), ishqor eritmalari, hamda ko'pgina erituvchilar ta'siriga chidamli, ammo $70-80^{\circ}\text{S}$ gacha qizdirilganda ularni ayrimlarida qisman eriydi.

Havoda uzoq vaqt qizdirish natijasida polietilen sekin – asta oksidlanib uning xossalari yomonlashib boradi. Bunda polietilenni qisman destruksiya uchirishi, uni mexanik va dielektriklik xossalarini pasaytirsa, molekulalarning qisman tikilishi esa polimer suyuqlanmasi qovushqoqligini ortishiga va demak uni tayyor mahsulotga qayta ishlashni qiyinlashtirishga olib keladi.

Polietilen oksidlanishini oldini olish maqsadida unga barqarorlovchilar (antioksidlovchilar) qo'shiladi. Polietilen tarkibiga antioksidlovchilarni, masalan aminlarni (0,1% gacha) kiritish, uni eskirishini (qarishi) sekinlatib, polimerni texnik xossalariga sezilarli ta'sir o'tkazmaydi. Eskirishni oldini polietilen tarkibiga 2-3% qurum (saja) qo'shish bilan ham olish mumkin.

Radiatsiya nurlari ta'sirida polietilen molekulalarini qisman tikilishi, uni issiqbardoshligini oshirib, egiluvchanligi (elastikliligi) va zarbiy ta'sirlarga chidamliligini kamaytiradi. Havosiz muhitda polietilen 290°S gacha barqaror.

Harorat $300-400^{\circ}\text{S}$ da polietilen o'z tarkibida juda oz etilen saqlagan suyuq va gaz xolidagi moddalarga parchalanadi. Bu xol polietilenning destruksiya natijasida parchalanishi, oddiy depolimerlanishdan tubdan farq qilishini ko'rsatadi.

Qayta ishlashdan avval polietilen 3mm kattalikdagi granulalarga aylantiriladi. Granulalash polimerga oson yoyilish, qayta ishlash uchun qulay hajmiy zichlik

(0,5 kg/l) ka ega bo'lishdan tashqari, uni bosim ostida quyish, va ekstruziya usullarida qayta ishlashda bir xil qizdirishga yordam beradi.

Polimer materiallarning disperslik darajasi va bir jinsliligini aniqlash.

Polimer materiallarning granulometrik tarkibi, ya'ni disperslik darajasi turli o'lchamdagi zarrachalarning bo'lishi bilan xarakterlanadi. Disperslik darajasi % bilan ifodalanadi va u sinash uchun olingan materialda ma'lum o'lchamdagi zarrachalardan qancha borligini ko'rsatadi. Material dispersligi qancha kam bo'lsa, u shunchalik bir jinsli qisoblanadi va uni qayta ishlab buyumga aylantirish oson bo'ladi.

Suv Shimlanuvchanligini aniqlash

Suv shimlanuvchanlik - ma'lum haroratda va vaqt mobaynida suv ichida turgan biror namunaga shimdirilgan suv miqdoridir. U mg yoki protsent qisobida ifodalanadi va tekshirilayotgan namunaning qanchalik qovakligini bilishga imkon beradi.

Xuddi shunga o'xshash moy, benzin va boshqalarga chidamliligini ham aniqlash mumkin.

Oquvchanlik va ularni aniqlash usullari

Oquvchanlik materialning ma'lum haroratda va bosim ostida oqib qolipni to'ldirish qobiliyatidir. Uni aniqlash uchun turli usullardan foydalaniladi.

Polimerlarning oquvchanlik darajasiga ko'ra buyumlarni presslash yoki quyish uchun kerakli solishtirma bosim topiladi. Solishtirma bosim oquvchanlikka teskari proportsional bo'lgan miqdordir. Oquvchanligi yuqori bo'lgan materiallar murakkab shakli va armaturali buyumlar olishda juda qulay qisoblanadi.

Plastmassalardagi oquvchanlik polimerlarning tabiatiga, to'ldiruvchining turiga va miqdoriga hamda plastifikator, moylovchi modda va boshqa qo'shimchalarning borligiga ham boqliq.

Termoreaktiv pressmateriallarning oquvchanligi, Rossiya standarti bo'yicha "Rashig" press-qolipda olingan sterjenning uzunligini (mm) topishga asoslangan.

Termoreaktiv materiallarni qovushqoq oquvchan xossalari va qotish vaqtini Kanavtsa-Tseytlin metodi bilan ham aniqlash mumkin. Bu usullar qovushqoq oquvchan holatdagi materialning siljish kuchlanishi (napryajenie sdvigom), qovushqoqlik oquvchanlik holati davomatligi, qotish vaqti, shuningdek ularni harorati siljish va siljish tezligiga boqliqligini o'rganishga asoslangan.

Termoplastik polimerlarning oquvchanlik ko'rsatkichi suyuqlanma indeksi (PTR, MI) degan tushuncha bilan ifodalanadi.

Suyuqlanma oqishi ko'rsatkichi sifatida berilgan harorat va tegishli yuk bosimi 10 minut davomida soplodan o'tgan massa miqdori qabul xilingan va quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$i = 10 \cdot Q$$

Bu erda: Q - oqib tushgan polimer miqdori; gramm

10 - siqib chiqarish vaqti; minut

i - miqdori bo'yicha polimerning qayta ishlash dastlabki usuli aniqlanadi.

Zichlanish koeffitsientini aniqlash

Amalda ko'pincha kukunsimon, granula va tolasimon polimer materiallarni qayta ishlash jarayonida ularning zichlanish koeffitsientlarini topishga to'g'ri keladi.

Zichlanish koeffitsienti - ma'lum miqdordagi qoliplanadigan massani qoliplash vaqtida uning hajmining o'zgarishini xarakterlaydi.

Xozirda polietilen granulalaridan butun dunyo foydalanadi shu jumladan bizning davlatimiz ham bu granulalardan ko'p maqsadlarda foydalanadi, masalan polietilen paketlari, ruzg'or buyumlari, xar xil ulchamdagi polietilen trubalar va hokazolar.

Ishlab chiqarish chiqindilari va ulardan foydalanish yo‘llari

XXI asr sanoat ishlab chiqarish asri shuning uchun ham hozirda barcha mamlakatlarda ishlab chiqarish tobora kuchaymoqda shu bilan birgalikda ishlab chiqarishdan qoladigan chiqindilar ham kupaymoqda buni kamaytirish esa hozirda dolzarb masalalardan biridir.

Bu masala SHurtan Gaz kimyo majmuasida kurilmoqda, bu korxonadan chiqayotgan chiqindi gazlarni kamaytirish maqsadida choralar kurilgan. 1000 raqamli (belgili) qurilma. Bu qurilmadan quyidagi gaz ko'rinishidagi chiqindilar chiqadi. Piroliz pechidan chiqadigan domna gazi. Uning tarkibidagi azot va oltingugurt oksidlari konsentratsiyalari tegishlicha $< 120-150 \text{ mg/m}^3$ va $< 1 \text{ mg/m}^3$ qiymatlarga ega.

Qurilmadan suyuq chiqindi sifatida polimer moyi ajraladi. Uning miqdori kuniga 300 kg.ni tashkil qiladi. Bu moyni utilizatsiya qilish maqsadiga piroliz uchun mo'ljallangan kokslash pechining xom-ashyosiga qo'shiladi.

Tozalash-bug'latish injektorini tozalash natijasida 175 kg qattiq nam uglerod xosil bo'ladi. Uni tozalash yiliga 2 marotaba amalga oshiriladi. Bu koks Navoi shaxridagi sement zavodiga xom-ashyo sifatida ishlatish uchun yuboriladi.

Aktivlangan ko'mirli amin filtridan 35 m³ chiqindi chiqadi. Bu qurilmaning ishlash vaqti 3-5 yil. Bu chiqindi Navoi shaxridagi sement zavodiga yuboriladi.

2000 raqamli qurilma. Gazsimon chiqindilar. Siklogeksan saqlash rezervuaridan uzlukli ravishda soatiga 1,6 kg gaz chiqib turadi. Gaz tarkibida 78,6% N₂, 21,4% siklogeksan mavjud. Bu gaz atmosferaga chiqariladi.

Katalizator saqlagichini xaftasiga 1 marta shamollatish natijasida soatiga 315 kg (248 nm³/g) gaz chiqadi. Bu gaz tarkibida 4,2% suv, 92,8% N₂, 2,2% siklogeksan va 0,8% HCl bo'ladi.

Suyuq chiqindi. Polimer chiqindilar (qovushqoq smazkalar) miqdori 200 kg/soat (me'yor), 1215 kg/soat (max).Chiqindi 40% siklogeksan, 25,0% etilsiklogeksan va 5% past molekular polimerlardan iborat bo'lib ular bug' generatorida yoqiladi.

Qattiq chiqindilar. Yiliga 165 metrik tonna sifatsiz polietilen xosil bo'lib, uning tarkibida 91% PE va 9% suv bo'ladi. Bu chiqindi utilizatsiyasi kompleksdan tashqarida amalga oshiriladi. Zavoddan yiliga 1120 t. Al_2O_3 xosil bo'ladi. U sement zavodining pishirish pechiga qo'shimcha sifatida ishlatiladi.Zavoddan yiliga 80 tonna silikagel va 10 tonna molekular elak asosi chiqadi.

Qattiq chiqindilar. Qoplarning yirtilishi natijasida yiliga 600 metrik tonna PE granulalari to'kiladi.Bu chiqindilar xam kompleksdan tashqarida utilizatsiya qilinadi.Qadoqlovchi material sifatida PE paketlar va plyonka ishlatiladi. Yiliga 6000 kg PE sarf bo'ladi.

Sho'rtan gaz kimyo kompleksida xar xil chiqindilarni yo'qotish uchun bir qancha tadbirlar ko'zda tutilgan shulardan biri chiqindilarni yondirish moslamasidur.

Bu moslamaga zavodni xar xil nuqtalaridan quvurlar orqali yoqish uchun chiqindilar yuboriladi oqim miqdori norma bo'yicha 200 kg/soat, maksimum 800 kg/soat ga mo'ljallangan bu chiqindilar qatoriga past molekula oqirlikka ega bo'lgan polietilen xam kiradi. Xullas qilib aytganda suyuq xolatdagi barcha chiqindilar yoqishga yuboriladi.

Ishlab chiqarishning texnologik sxemasi va parametrlar yozuvi jarayoni

RESIKL ZONASI. Resikllash qurilmasida polimerlanish va yakuniy ishlov berish zonalaridan kelayotgan erituvchibug'larni haydash yo'li bilan quyidagi oqimlarga ajratiladi:

- resikl siklogeksani;
- reaksiyaga kirishmagan etilen;
- resikl somonomeri buten-1;
- buten-2;
- quyi molekular massali (RB) polimer;
- polimerlanish reaksiyasining yonaki mahsulotlari va aralashmalar.

Siklogeksan va hamkor monomer reaksiyada katnashish uchun qayta siklga qaytariladi. Reaksiyaga kirishmagan etilen esa etilen qurilmasiga yo'naltiriladi. Buten-2, quyi molekular massali polimer va qo'shimchalar tizimdan chiqindi sifatida yoqishga chiqariladi.

Erituvchi va somonomer tiklash, ajratish va tozalash uchun uchta idishdan olinib xaydash uchastkasiga yuboriladi:

- FA-2120 oraliq bosim separatorining yuqori oqimi;
- FA-2121 va FA-2122 quyi bosim separatorining yuqori oqimi;
- doimiy ishlab turuvchi tozalash va idishlar jamlamasidan keluvchi turli oqimlar

(LPS) Past bosimli separator kondensatori

Suyuq polimer bilan aralashgan erituvchining ko'p qismi quyi bosim separatorlari FA-2121 ning birinchi, FA-2122 ning ikkinchi bosqichlarida to'planadi. Bu ikkita oqim bug' holida FA-2123 quyi bosim separatoriga keladi. Bu yerda qoldiq

polimer ajratiladi. Bu oqim sovitish va kondensatsiya uchun past bosimli separator YeA-2201 kondensatoriga beriladi.

YeA-2201 kondensatorida sovutilgan oqim FA-2201 ushlab turuvchi idishga keladi. Yakuniy ishlov berish zonasida dekantator (FA-2318) da ajratib olingan siklogeksan ham nasoslar bilan LPS ning ushlab turish sig'imiga keladi. FA-2201 LPS ushlab qolish sig'imida harorat 30-60⁰S, bosim 20-50 kPa chegarada ushlab turiladi.

Chiqish quvuri GA-2201A/B kondensat nasosiga so'rishni ta'minlab beradi. Liniyada GA-2201A/B nasoslarigacha FD-22021A/B ikki qatlamli to'rsimon filtrlar o'rnatilgan. Ular siklogeksandan polimer va aralashmalarni ajratish uchun mo'ljallangan.


FA-2201 ushlab qolish sig'imlaridan GA-2201A/B nasoslari tiklangan uglevodorodni DA-2201 quyi haroratda qaynovchilar kolonnasiga haydaydi. Nasoslardan chiqishda bosim 2000-2700 kPa oralig'ida o'zgaradi.

